MARKAZIY OSIYODA ISLOM: DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARINING TARIXI VA BUGUNI

Soibjonova Samiya
O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi bugungi kunga qadar islom diniga bo‘lgan munosabatlar yotirilgan bo‘lib, Chor Rossiyasi va Sovet iffifoqi tuzumida islomga munosabat, diniy idoraning tuzilishi va faoliyati haqida, shuningdek Mustaqillikdan keyin islom dini faoliyatiga yaratib berilayotgan imkoniyatlar va bu boradagi amaliyotlar haqida ma'lumotlar.

Kalit so'zlar: Sovet Ittifoqi, muftiyat, shayx ul-islom, diniy siyosat, diniy maktab.

Markaziy Osiyo davlatlarida bugungi islom dini ko‘rinishlarining paydo bo‘lishida hamda ularning davlat bilan munosabatlari shakllanishida nafaqat Sovet davri, balki undan oldingi chor Rossiyasi hukmronligi paytidagi hukumat siyosati ham muhim ahamiyatga ega. Birmingem universiteti tadqiqotchisining aytishicha, Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda uzoq yillar rasmiy islom ta'limoti salafiy aqidasiga asoslanganini bugun ko‘pchilik bilmaydi. Sovet Ittifoqi davrida islom va davlat munosabatlari qanday bo‘lgan? Bugungi O‘rta Osiyo mamlakatlari yuritayotgan din siyosati sobiq sho‘rolar davridagi siyosatdan qanchalik farq qiladi? Jorj Vashington universitetida kechgan davra suhbatida Birmingem Universiteti tadqiqotchisi Galina Yemelianova shu mavzuda fikr yuritdi.

Olimaning aytishicha, an'anaviy islom dinida nasroniylikdagi cherkov kabi markaziy diniy boshqaruv yo‘q. Siyosiy hokimiyat dindorlarni o‘z nazoratida tutib turish uchun davlatga tobe muftiyat, shayxul islom kabi idora va unvonlarni o‘ylab topgan, deydi. "Rossiya O‘rta Osiyoni bosib olgandan keyin bu yerdagi musulmonlarga nisbatan ham Rossiyadagi tartibni joriy qila boshladi. Yekaterina II XVIII asr oxirida tatar va boshqird musulmonlarini boshqarish uchun yaratgan muftiyat modeli O‘rta Osiyoda ham tatbiq qilindi. Turkiston gubernatorligi to‘g'ridan to‘g'ri Rossiya siyosati ostida boshqarilgan bo‘lsa, Buxoro amirligi va Xiva xonligi diniy siyosatda mustaqilligini saqlab qoldi", - deydi Yemelianova.

Islom olamida Markaziy Osiyoning ahamiyati katta. Qur'ondan keyin eng ishonarli ikkinchi manba sanaladigan sahih hadis to‘plamlarining ikkitasi shu mintaqa olimlari - Imom Buxoriy va Imom Termiziy tomonidan yozilgan. Shu bois, deydi tadqiqotchi, Islomning shakllanishida mintaqaning roli katta bo‘lgan.Tadqiqotchining yana aytishicha, O‘rta Osiyoda hozirgacha mavjud an'anaviy islom ta'limi tizimi temuriylar davrida dunyoga kelgan."Hozirda qadimchilar deb ataladigan an'anaviy diniy ta'lim tarafdorlari va madrasalar shu davrda Markaziy Osiyoda din va davlat munosabatlari uzoq yillardan beri ko‘plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib keladi. O‘tgan chorak asr davomida qanday o‘zgarishlar yuz berdi? Markaziy osiyolik bir guruh ekspertlar tayyorlagan hisobotga ko‘ra, so‘nggi yillarda mintaqa davlatlari dinga ixtilofdan ko‘ra ko‘proq imkoniyat manbai sifatida qarayotgani ko‘zga tashlanmoqda.

Masalan, O‘zbekiston 90-yillar boshidan diniy nazoratni kuchaytirish yo‘lidan borgan bo‘sa, Qozog'istonda bu holat so‘nggi yillarga kelibgina ko‘zga tashlana boshladi. Qirg'iziston esa diniy erkinlik ancha keng ta'minlangan mamlakat sifatida qayd etiladi.

"Markaziy Osiyo mamlakatlari umumiy o‘tmishga ega bo‘lganidek, mustaqillikdan keyin ham ularning diniy siyosatida o‘xshash jihatlar ko‘p bo‘ldi", - deydi Sanat Kushkumbayev.Tojikiston 2015-yilgacha mintaqaning diniy partiya faoliyati ruxsat berilgan yagona davlati bo‘lib keldi. Ammo u yerda ham regionning yagona islomiy partiyasi faoliyatiga barham berilib, davlatning diniy hayot ustidan to‘liq nazorati o‘rnatildi. Kushkumbayevning qayd etishicha, diniy ta'lim dargohlari, masjidlar va imomlar soni bo‘yicha tafovut bu o‘lkalarda amalga oshirilgan diniy siyosatdagi o‘ziga xosliklarni ko‘rsatib beruvchi omillardan biridir. Masalan, 2016-yilgi raqamlarga ko‘ra, mintaqaning eng ko‘p aholiga ega mamlakati O‘zbekistonda (32 million) masjidlar soni eng kam miqdorni (2065) tashkil etgan. Eng kam aholiga ega ikki davlat - Tojikiston (8,7 million) va Qirg'iziston (6 milion) esa eng ko‘p masjidlarga ega: Tojikistonda 3930 ta, Qirg'izistonda 2516 ta. Qozog'istonlik ekspertga ko‘ra, imomlar soni bo‘yicha ham, aholi jon boshiga hisoblaganda, eng kami O‘zbekistonga to‘g'ri keladi. Bu yerda har 7824 kishiga bir imom to‘g'ri keladi. Tojikistonda har 2210 kishidan bittasi imom hisoblanadi. Diniy ta'lim dargohlari soni bo‘yicha Qirg'iziston peshqadam, deydi Kushkumbayev. Mintaqaning eng kichik davlatida 112 ta diniy maktab va madrasalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Tojikistonda bitta islom instituti bo‘lsa, mintaqa aholisining yarmini o‘zida jamlagan O‘zbekistonda bor-yo‘g'i 11 ta diniy bilim yurti bor. Qozog'istonda ularning soni 13 ta.rda bunyod etilgan", - deydi u.

XIX asr oxiriga kelib O‘rta Osiyo musulmonlari orasida dinni va jamiyatni isloh qilishga chaqiruvchi jadidchilar guruhi paydo bo‘ldi. Shu bilan musulmonlar orasida qadimchilar va modernistlar o‘rtasida ziddiyat yuzaga keldi. Sovetlar hokimiyati o‘rnatilguncha qadimchilarning qo‘li baland kelgan, deydi Yemelianova. "Sovetlar hokimiyatga kelgach, ular, avvalo, qadimchilarni yo‘q qilishga tushdi. Chunki qadimchilar O‘rta Osiyoda an'anaviy islom namoyandalari edi. An'anaviy ulamolarni chetga surib, jadidchilarni hokimiyatga, mahalliy idoralarga jalb qilishdi. Ularning yordami bilan eski dindorlardan qutulishni niyat qilishdi", - deydi u.Shuningdek, sovet hokimiyatining ilk yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatni og'irlashtirmaslik uchun mahalliy shariat sudlari va qoziliklarining ishlashiga ruxsat berilgan.Ammo Stalin hokimiyatni egallagach, vaziyat keskin o‘zgardi. "Sovetlar barcha dindorlarni, qadimchilarni ham, modernistlarni ham yo‘q qila boshladi. Ular madrasalarni, masjidlarni yakson qilishdi. Vaqf mulklarini davlat hisobiga o‘tkazdi. Ko‘plab ulamolar qatag'on qilindi", - deydi tadqiqotchi."Hujum" harakati kabi siyosiy kampaniyalar doirasida ayollar ro‘mol va paranjilaridan voz kechishga majburlandi. Universal majburiy ta'lim orqali ateistik ta'limot olg'a surilib, dahriylik davlat siyosatiga aylandi.Ammo Ikkinchi jahon urushi davrida yana dindorlarga imkoniyat berila boshlandi. 1943-yil O‘rta Osiyo musulmonlari diniy idorasi tuzildi. Rasmiy tarzda ayrim madrasa va masjidlar faoliyat yuritishiga ruxsat berildi.

Toshkentda muftiyat tuzildi. U boshqa respublikalarda bo‘lmagan, faqat Toshkentdan boshqarilgan. Markaziy Osiyoning boshqa respublikalarida muftiyatning filiallari, qoziliklar ochilgan", - deydi tadqiqotchi. Olimaning kuzatishicha, hukumatning qattiq nazorati ostida faoliyat yuritgan bu muftiyat madrasalarida salafiylik targ'ib qilingan. Buni o‘sha paytda tasavvufga qarshi siyosat kuchli bo‘lgani bilan izohlash mumkin, deydi u."Bu davrni Rossiya imperiyasi davridagi siyosat bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, sovetlar muftiyat orqali islomning barcha jabhalarini nazorat qilgan bo‘lsa, chor Rossiyasi davrida islomiy ta'lim davlat nazoratida bo‘lmagan edi. Madrasalar nimani qanday o‘qitish bo‘yicha erkinlikka ega bo‘lgan", - deydi Yemelianova.

Markaziy Osiyo davlatlari 90-yillar boshiga kelib mustaqillikka erishdi. Diniy qadriyatlar rasman qayta tiklansa-da, amalda din nazorati bo‘yicha sovet modeli davom etdi, deydi olima."Din ustidan nazoratning eng kuchli ko‘rinishi O‘zekistonda kuzatildi, - deydi olima. - O‘lkaning

Afg'onistonga chegaradoshligi ham buning sabablaridan biri. Siyosatda shakl o‘zgargan bo‘lsa ham, mohiyatan sovet boshqaruvi o‘zgarmadi".Shuningdek, Qirg'iziston va Qozog'istonda salafiylik ta'limotini qo‘llab-quvvatlovchi shaxslarning rasmiy diniy idora darajasigacha ko‘tarilishi kuzatildi. O‘zbekistonda esa tasavvuf o‘zbek milliy-diniy qadriyatlarining bir qismi sifatida rasman e'zozlandi; aksincha, salafiylikka qarshi keskin kurash olib borildi.

"Tarixiy nuqtai nazardan Sovetlar hukmronligi uzoq davom etmagan bo‘lsa-da, davlat va din munosabatlarining shakllanishida Markaziy Osiyo uchun eng muhim bosqich vazifasini o‘tadi", - deydi olima. Bu, asosan, dinning hukumat tomonidan qattiq nazorat ostida saqlanishi sifatida namoyon bo‘ldi va mazkur tartib Sovet Ittifoqi qulaganiga chorak ask to‘lgan bo‘lsa-da, hanuz amalda.

O‘zbekiston dunyoviy xarakterdagi davlat va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo‘lishiga qaramay, ularni jamiyatdan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu sababli davlat diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyatini qo‘llab quvvatlaydi, jamiyatning ma’naviy qadriyatlarini tiklanishi va rivojlanishida diniy tashkilotlar ko‘magiga tayanadi, ya’ni O‘zbekistonda din davlatdan ajratilgan bo‘lsada, jamiyatning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi.Bugungi kunda din bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi fuqarolar va davlatning o‘rni va ahamiyati birmuncha oydin bo‘lsa-da, diniy tashkilotlar haqida, ularning maqomi va vazifalari, faoliyati haqida ma’lumotga ega bo‘lish vijdon erkinligi sohasidagi bilim va ko‘nikmalarning yanada ortishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, islom yuksak umuminsoniy fazilatlarni shaklantirish – insonni diniy bag`rikenglik asosida yuksak ma`naviyatga chorlovchi Prezident Islom Karimov O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatini qo`shma yig`ilishida qayd etganidek, bugun bag`rikeng, ma`rifatli islomni niqob qilib olgan ekstremistik g`oyalardan himoya qilish bilan birga, undan hozirgi istiqlol oldimizga qo`yayotgan dolzarb ma`naviy – ma`rifiy va tarbiyaviy muammolarni hal qilishda ustuvor omilardan biri sifatida foydalansak, maqsadga muvofiq bo`ladi. Zero, ming yillik ma`naviyatimiz tarixi ham shak-shubhasiz fikrimiz to`g`riligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Boboxonov Sh. So‘nmas ziyo T. 1998;

2.Babaxanov Sh. Muftiy Ziyauddinxan ibn Eshon Babaxan T., 1999;

3.Boboxonov Sh., Shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon (Ma’naviyat va ibrat maktabi),

4.Dunyo dinlari tarixi: S.Agzamxodjaev, D.Raximjonov, N.Muxamedov va b. Toshkent: ToshDSHI, 2011. - 262 b.

5. Mo‘minov A. Dinshunoslik. Darslik. - Toshkent: “Yangi asr” nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004. -356 b.

6.Abduxoliqov J., Yuldasheva S. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma/ - Toshkent: “Oqituvchi” nashriyot birlashmasi. 2004. -214 b

7. Xusniddin Xolmatov (2022). BUXORO AMIRLIGINING TA’LIM TIZIMI. Academic research in educational sciences, Religion Conference , 252-253.

8.Lapasov, M. (2023). THE EDUCATIONAL VALUE OF IMAM MOTURIDI'S TEACHINGS FOR THE YOUNG GENERATION. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2(1), 148-152.